

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**"RO'YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-53409-4.03**

**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi**

---

**"8" iyul 2003 y.**

**MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"  
ta'lim sohasidagi 5340900 - "Buxgalteriya  
hisobi va audit" bakalavriat yo'nalishi uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchilar:** prof. Ibrohimov A. T.,  
k.o'q. Ishonqulov N. F.

**Taqrizchilar:** dots. Fayziev B. V.,  
dots. Fayziev Sh. N.

Mazkur o'quv dasturi iqtisodiy yo'nalishlardagi oliy o'quv yurtlarining III-IV-kurs talabalari uchun mo'ljallangan. Bozor iqtisodiy sharoitida "Moliyaviy va boshqaruv tahlil" fanini o'rgatish buxgalteriya hisobi va audit, moliya, kredit sohalarida malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan uzviy bog'liqdir. Dastur uch bo'limdan iborat. Unda boshqaruv va moliyaviy tahlilning mazmuni hamda investitsiya va tashqi iqtisodiy faoliyat tahlilining o'ziga xos xususiyatlari ifodalangan.

Данная учебная программа предназначена для подготовки студентов III-IV курсов высших учебных заведений экономического направления. В условиях рыночной экономики является объективной необходимостью подготовка высококвалифицированных кадров в области бухгалтерского учёта, аудита, финансов и кредитования. В этой связи в процессе подготовки вышеупомянутых кадров преподавание предмета "Финансовый и управленческий анализ" играет большую роль. Учебная программа состоит из трех частей. Она включает в себя вопросы сущности управленческого и финансового учета, а также особенности анализа инвестиционной и внешней экономической деятельности предприятий.

The given educational program is intended for opening-up of the students 3-4 of courses of higher educational establishments of an economical direction. In conditions of market economy is by objective necessity the opening-up of highly qualified staff (frames) in the field of the accounting count, audit, finance and crediting. In this connection teaching of a subject "the Administrative and financial analysis" plays a large role during opening-up of the above mentioned staff (frames). The educational program consists of three parts. It includes problems of nature of the administrative and financial count and also features of the analysis of investment and external economical activity of firms.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## **1. SO'Z BOSHI**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi tub o'zgarishlar malakali kadrlarga bo'lgan talabni yuzaga keltirmoqda. Bu esa o'z navbatida biznes va boshqaruv sohasida band bo'lgan xodimlarni zamonaviy bilimlarini oshirishni talab qilmoqda. Mutaxassislik fanlari qatoriga kiruvchi ushbu fan talabalarni korxonalar faoliyatini tahlil etish va maqsadli boshqarishning muhim jihatlari bilan tanishtiradi. Mazkur fan korxonalar iqtisodini boshqarishning, xo'jalik jarayonlari, ularning samaradorligini va moliyaviy natijaviyligini baholashni, xo'jalik-moliya faoliyatiga iqtisodiy tashhis qo'yish usullari haqida bilim beradi.

### **O'qitishning maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

"Boshqaruv va moliyaviy tahlil" fani talabalarga firma, kompaniya, hissdorlik jamiyatlari va shu kabi turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatini o'rgatish maqsadida o'qitiladi. Bu fanni o'qitilishidan maqsad bo'lg'usi ish joylarida turli xil axborot manbalaridan foydalanib korxonalarda bo'layotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida tushunish va boshqaruvda to'g'ri qarorlar qabul qilishga o'rgatishdan iboratdir. Asosiy vazifalar bo'lib firma va kompaniyalar faoliyatiga xolisona baho berishni o'rganish, yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ichki imkoniyatlarni aniqlash va ilg'or tajribalarni ishlab chiqarishga tadbir etishdir.

"Moliyaviy va boshqaruv tahlil" fanini o'zlashtirishchda talabalar "Iqtisodiy nazariya", "Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika", "Statistika", "Marketing va menejment asoslari", "Bank ishi", "Jamg'arma ishi", "Sug'urta", "Mikroiqtisodiyot", "Makroiqtisodiyot", "Audit", "Byudjet va byudjet tuzilishi", "Moliya", "Kichik biznes va tadbirkorlik", "Soliq va soliqqa tortish", "Pul, kredit va banklar", "Moliyaviy va boshqaruv hisobi", "Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish", "Qimmatbaho qog'ozlar va fond birjasi" va shu kabi boshqa iqtisodiy fanlarni mukammal egallashi lozim.

### **Oliy ta'limning DTS ga "Moliyaviy va boshqaruv tahlil" fani bo'yicha talabalarning bilimiga, o'quvi va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar**

- boshqaruv va moliyaviy tahlilning muhim tamoyillari va qo'llaydigan uslublarini bo'lg'usi ish joylarida foydalanish;
- joriy, tezkor va istiqbolli tahlil turlarini iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda qo'llash;
- aniq firma va kompaniya faoliyatidagi jarayonlarning axborot manbalaridan foydalanib, to'g'ri tushunishga;

- moddiy, mehnat va moliyaviy boyliklardan korxonalarining foydalanganlik darajasiga baho bera olishlikka;
- ishlab chiqarish, davriy va moliyaviy faoliyat bilan bog'liq xarajatlarni o'rgana olishlikka;
- mahsulotlar sotishdan, asosiy va umumxo'jalik faoliyatidan ko'rilgan moliyaviy natijalarni aniqlay bilishga;
- moliyaviy ahvol va to'lov qobiliyatini o'rganib, raqobatga chidamli bo'lishlik uchun amalga oshiriladigan tadbirlarni ko'rsata bilishga;
- firma va kompaniyalarni iqtisodiy samaradorligini yaxshilash bo'yicha takliflar berishga o'rgatadi.

#### **Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar hajmi**

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida ushbu kursga 156 soat hajmda vaqt ajratilgan. Ularning 78 soati ma'ruza, 78 soati amaliy mashg'ulotdir.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda): auditoriya mashg'ulotlari bo'yicha soatlarning 156 soati (100%) auditoriya soatlariga ajratilgan. Mustaqil ta'lim soatlari o'quv grafigi bo'yicha kafedra kunlarida tashkil etiladi.

#### **Fan bo'yicha talabalar bilimni baholashning tadbirlari**

Fan buyicha talabalar bilimi reyting tizimi bo'yicha baholanadi. Umumiy o'quv grafigi bo'yicha ajratilgan soatlarning 70 foizi joriy va oraliq nazoratga, 30 foizi yakuniy nazoratga ajratiladi. Joriy baholash har bir amaliy mashg'ulotda o'rganilgan mavzular bo'yicha kichik testlar, firma va kompaniyalar misolida tuzilgan amaliy masalalarni echish natijalariga qarab amalga oshiriladi. Oraliq baholash esa mavzularning to'liq tushunchasini ifodalovchi tayanch iboralar va so'zlar asosida yozma ish olish natijasi bilan hal qilinadi. Talabalar davomati (20 foizgacha), faolligi (30 foizgacha), daftar yuritishi (20 foizgacha) va yakuniy yozma ish (30 foizgacha) buyicha joriy va umumiy reyting baholari chiqariladi. Yakuniy baholash yozma ish shaklida tashkil etiladi va baholanadi.

#### **Kompyuter, axborot va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llanilishi**

Fanni o'zlashtirishda ilg'or pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari bo'lmish: 1) fanni mazmunini ko'rsatuvchi ko'rgazmali albomlardan foydalanish; 2) tayanch iboralar va so'z lug'atlaridan yozma ishni tashkil etish; 3) "Buxgalteriya ish joyini avtomatlashtirish" dasturidan foydalanish; 4) "1S Buxgalteriya" dasturidan foydalanish; 5) "Buxgalteriya hisobotini va korxonada moliyaviy ko'rsatkichlarini avtomatlashtirish", 6)

Masofaviy o'qitishni tashkil etish kabi kompyuterda bajariladigan dasturlardan foydalaniladi.

### **Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar**

"Moliyaviy va boshqaruv tahlil" fani III kursning VI va IV kursning VII hamda VIII semestrlarida o'qitiladi. Dastlab boshqaruv tahlili fanida mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish, ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlash va ulardan foydalanish, mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxini tahlil etish o'rganiladi. Shuningdek, korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalari, xususiy kapital va pul oqimlari o'rganiladi. Ta'limning so'nggi bosqichida firma va kompaniyalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil etish uslublari o'rganiladi. O'quv jarayoni reyting tizimi asosida tashkil qilinib, joriy baholash har bir amaliy mashg'ulotlarda o'rganilgan kichik testlar, firma va kompaniyalar misolida tuzilgan masalalar natijalariga qarab amalga oshiriladi. Oraliq baholash esa mavzularning to'liq tushunchasini ifodalovchi tayanch iboralar yordamida yozma ish olish natijasi bilan hal etiladi. Shuningdek, talabalarga "Nazariy o'yin", "Miyaga hujum" va boshqa ilg'or uslublarni qo'llash fanni puxta o'zlashtirishga yordam beriladi.

### **Umumiy o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi**

Oliy kasbiy ta'limning "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi davlat standartlarida ushbu kursga 156 soat hajmda vaqt ajratilgan. Ularning 78 soati ma'ruza, 78 soat amaliy mashg'ulot. Shuningdek mustaqil ta'lim va kurs ishi (loyiha) mo'ljallangan. "Boshqaruv va moliyaviy tahlil" fanidan olingan nazariy bilimlar talabalarning malakaviy amaliyot o'tish jarayonida yanada mustahkamlanadi va kelgusida dolzarb boshqaruv masalalarning to'g'ri echimini topishga o'rgatadi.

## **2. FAN DASTURI**

### **Ma'ruza mashg'ulotlari mazmuni**

#### **1-Bo'lim. Boshqaruv tahlili**

##### **Korxonada mahsuloti va xizmatiga bo'lgan talab va taklif tahlili**

Korxonaning marketing faoliyatini tahlil etishning ahamiyati va tahlil vazifalari. Korxonada mahsuloti va xizmatiga bo'lgan talab va taklifni tahlil etish uslublari. *Talab va taklifga ta'sir etuvchi omillar: mahsulot bahosi va uning sifati, xarid etuvchilarning*

*daromadi, o'zaro almashadigan tovarlar bahosi, bozorni tovarlar bilan to'yimliliigi va h.k.*

Iste'mol tovarlarini iste'molchi tomonidan xarid etilmaganlik sabablari: tashqi va ichki sabablar.

Iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini tahlil etish uslublari. Raqobat darajasi va ular tahlili. Narx-navo siyosati, ular to'g'risida tushuncha va tahlil vazifasi. *Narx-navoning tashkil topishi va ularning turlari. Raqobat darajasi ko'rsatkichlari va ularni aniqlovchi omillar.*

### **Mahsulot ishlab chiqarish hajmining tahlili**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ishlab chiqarish hajmini tahlil etishning ahamiyati, vazifalari va unda foydalaniladigan manbalar. *Mahsulot hajmini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi. Qiymat, natura, shartli-natura ko'rsatkichlarning mahsulot hajmini aniqlashda qo'llanilishi.* Mahsulot hajmini o'sish sur'ati tahlili. Ishlab chiqarish va sotish hajmlarini bir-biriga bog'liqligi. Mahsulot hajmini aniqlashda xo'jalik bitimidagi shartnomaning tutgan o'rni. Mahsulot assortimentini tahlil etish uslubi. *Mahsulot tarkibidagi strukturaviy o'zgarishini uning qiymat shakliga ta'sirini hisoblash uslubi.* Strukturani o'zgarish sabablari.

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini tahlil etish uslubi. Maromiylikni aniqlashda to'g'ri va egri ko'rsatkichlarning qo'llanilishi.

*Maromiylilik koeffitsientini aniqlash tartibi.* Maromiylikning buzilish sabablari va uning oqibatlari. Bozorni xilma-xil tovarlar bilan to'ldirishda kichik, o'rta korxonalar va tadbirkorlik faoliyatining tutgan o'rni va ahamiyati.

*Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni turkumlashtirish.*

### **Mahsulot (ish, xizmat)lar sotish va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sotish hajmini tahlil etishning ahamiyati va vazifalari. Mahsulot sotish hajmi dinamikasining tahlili. *Sotish hajmini o'rtacha yillik o'sish darajasini hisoblash tartibi.* Mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar va ularning tahlili.

Sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi tahlili. Shartnoma majburiyatlarini bajarilmaslik sabablari va uning korxonaga iqtisodiyotiga ta'siri. Sotish hajmi, o'rtacha narx, sotishdan keladigan tushum va foyda miqdorlarini xarid bozoriga bog'liqligi.

*Mahsulot sifatini tahlil etish uslubi. Sotilgan mahsulot sifatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar tizimi. Sifatni ifodalovchi yakka va egri ko'rsatkichlar. Mahsulotning raqobatga bardoshliligi tahlili. Sifatsiz mahsulotdan ko'riladigan yo'qotishlar. Tuzatib bo'ladigan va tuzatib bo'lmaydigan tovarning mahsulot hajmiga ta'sirini hisoblash tartibi.*

Mahsulot reklamatsiyasi, butligi(komplekt)ga e'tiborni kuchaytirishning bozor iqtisodiyoti sharoitida zarurligi.

*Mahsulot sotish hajmini oshirish imkoniyatlarini hisoblash va jamlash.*

### **Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik, mehnat unumdorligi va ularning mahsulot hajmiga ta'siri tahlili**

Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari natijalarining mahsulot hajmi, tannarxi va moliyaviy natijalarda o'z aksini topishi. O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslarini tarkibi va o'sish sur'atlarini o'ziga xos xususiyatlari. *Mehnat resurslari tahliliniing vazifalari.* Korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanganligi, uni tarkibi va harakati. Kadrlar tayyorlash va ularning malaka darajasi tahlili. Kadrlar qo'nimsizligi tahlili. Ishchilarning ish vaqtdan foydalanishi tahlili. *Ish vaqtdan to'liq foydalanmaslik, ish vaqtini yo'qotish sabablari va ularni mahsulot hajmiga ta'sirni aniqlash tartibi.*

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va ularning dinamikasi tahlili. Bir xodimga va bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulotga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash tartibi. Ishchining bir soatlik ish unumining o'zgarish sabablari. Mehnat sig'imi o'zgarishining mehnat unumdorlik ko'rsatkichiga ta'sirini aniqlash tartibi. *Ish vaqtdan unumli foydalanish va mehnat unumdorligi o'sishi hisobiga mahsulot hajmini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.*

### **Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanishning tahlili**

Moddiy resurslarning ishlab chiqarishda tutgan o'рни va ulardan samarali foydalanishning ahamiyati. Tahlil vazifalari. Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanishini tahlil etish uslubi. *Xom ashyo, yoqilg'i materiallarini zahira holatining tahlili. Optimal buyurtma va zahira partiyalarini aniqlash tartibi.*

Moddiy resurslar(xom ashyo, yoqilg'i va x.k.)dan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. *Mahsulot material sig'imi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash uslubi.*

Materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichi – materiallar xarajatini har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdorini o'zgarishiga material qaytimi, jami ishlab chiqarishda sotilgan mahsulot ulushi va sotishdan ko'rilgan rentabellik darajasini o'zgarishini ta'sirini

hisoblash usuli. *Sarf me'yorlari va material bahosini o'zgarish sabablari. Ikkilamchi resurslardan foydalanish afzalliklari.* Material resurslardan umumli foydalanish, zahira ortiqchaligini kamaytirish va material sig'imini pasaytirish evaziga mahsulot hajmini oshirish imkoniyatlarini hisoblash.

### **Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish tannarxi tahlili**

Korxonalar xarajatlarini tahlil etishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari. Korxonalar xarajatlarini turkumlash. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tahlili, bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari hamda boshqa ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlarning tahlili. *"O'zgarmas" va "O'zgaruvchan" xarajatlar tahlili. Xarajatlarning iqtisodiy mazmuni va elementlari bo'yicha tahlili.* 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan ishlab chiqarish harajatlari tahlili. Ishlab chiqarish moddiy xarajatlar tahlili, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnat haqi xarajatlari va ijtimoiy sug'urta uchun ajratma xarajatlar tahlili, asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi tahlili. Materiallar, yoqilgi va energiya uchun qilingan xarajatlar tahlili. Ish haqi harajatlari tahlili. Ishchilar va boshqa toifadagi xodimlarning ish xaqi fondiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. *Mehnat unumdorligining o'sishi bilan o'rtacha ish haqi o'rtasidagi nisbat tahlili va ularni mahsulot tannarxiga ta'sirini hisoblash.* Ishlab chiqarish yo'nalishidagi boshqa turdagi xarajatlar tahlili. Ayrim mahsulot turlarining ishlab chiqarish tannarxi tahlili. *Mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha aniqlangan imkoniyatlar (rezerv)ni umumlashtirish.*

### **Davr xarajatlari tahlili**

Tahlilning mazmuni, vazifalari va manbalari. Boshqaruv xarajatlari tahlili, mahsulotlarni sotish xarajatlari tahlili va *boshqa operatsion xarajatlar tahlili.* Sotish bilan bog'liq bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari va ijtimoiy sug'urtaga bo'lgan xarajatlar tahlili, savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga olish, saqlash va tuzatish xarajatlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi xarajatlari tahlili. *Tovarlarni saqlash, o'rash-joylash va savdo reklamasi xarajatlari tahlili. Ma'muriy xarajatlar: boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratma xarajatlar, engil avtotransportga va xizmat mikroavtobuslarini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari, xizmat safarlari va vakillik xarajatlari tahlili.* Boshqa operatsion xarajatlar: kadrlar tayyorlash, maslahat va axborot xizmatlariga haq to'lash, auditorlik xizmatlariga haq to'lash, salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarning dam olishi bilan bog'liq xarajatlar, kompensatsiya va rag'batlantirish tusidagi to'lov xarajatlar, zararlar, jarimalar,



penyalar bo'yicha xarajatlar tahlili. Davr xarajatlarini pasaytirish imkoniyatlarini hisoblash.

## **2-Bo'lim. Moliyaviy tahlil**

### **Korxonada moliyaviy holatining tahlili**

Tahlilning mazmuni va vazifalari. Buxgalteriya balansi va uni tahlilda qo'llanilishi. Balans aktivi tahlili. Balans passivi tahlili. *O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik va o'zgarish sabablarining tahlili.* Korxonada to'lov qobiliyati tahlili. Korxonada moliyaviy barqarorligi tahlili. Bank mijozining kreditga layoqatliligi tahlili. Balans likvidligi tahlili. Joriy va istiqbolli likvidlik koeffitsientlari tahlili. Oborot mablag'lari aylanishi tahlili. *Mablag'lar aylanishining umumiy va alohida (yakka) ko'rsatkichlari tizimi.* Korxonada moliyaviy holati tahlilining natijalarini umumlashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirish yo'llarini belgilash. *Korxonada moliyaviy va iqtisodiy holatiga umumiy baho berish.*

### **Moliyaviy natijalar tahlili**

Moliyaviy natijalar tahlili mazmuni, vazifalari va manbalari. Moliyaviy natijalarning shakllanishi, yillik sof foyda, uning tarkibi tahlili. Mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi foyda, uning o'zgarishiga sotishdan olingan sof tushum va sotilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishini hamda boshqa omillar ta'siri tahlili. *Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda va chiqimlar tahlili, asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan boshqa daromadlar: undirilgan yoki e'tirof etilgan jarima, penya va shtraflar, asosiy fondlarni va boshqa mol-mulklarni sotishdan olingan daromadlar, da'vo muddati, kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar, tovar-moddiy boyliklarni qayta baholanishidan va davlat subsidiyalaridan daromadlar, xolisona moliyaviy yordam va boshqa operatsion daromadlar tahlili.* Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar: olingan royaltlar va sarmoya transferti, boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ulushli qatnashish evaziga olingan daromadlar, aktsiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar, lizing to'lovlari daromatlari, valyuta operatsiyalari bo'yicha daromadlar, sarflangan mablag'larni qayta baholanishidan olingan daromadlar tahlili. Soliq to'langunga qadar foyda va foydaning ishlatilishi tahlili. Byudjetga to'lovlar va boshqa ajratmalar tahlili. Rentabellik darajalari tahlili. *Rentabellikka ta'sir etuvchi omillar tahlili. Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash.*

### **Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili**

Tahlilning vazifalari va manbalari. Debitorlik qarzlari tarkibi, muddatlari va ularni undirilish holati tahlili. Kreditorlik qarzlari tarkibi, muddatlari va ularning qaytarilish

holati tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansi tahlili. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili. *Debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik tahlili. Qarzlarni kamaytirish imkoniyatlari.*

### **Asosiy vositalarning holati va ulardan samarali foydalanish tahlili**

Tahlilning mazmuni, vazifalari va manbalari. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili. *Asosiy vositalarni texnik holati tahlili.* Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va qurollanganlik tahlili. Asosiy vositalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili. Asosiy vositalardan foydalanishning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirining omilli tahlili. *Mashina va jihozlardan vaqt va quvvat bo'yicha foydalanish tahlili.* Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

### **Pul oqimlarining harakati tahlili**

Pul oqimlari tahlilining mazmuni, vazifalari va manbalari. Umumiy pul oqimi harakati tahlili. *Xo'jalik faoliyatida pul mablag'lari harakatini tahlili: xaridorlardan kelib tushgan pul mablag'lari, mol etkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari, xodimlarga va xodimlar nomidan to'langan pul mablag'lari tahlili.* Investitsiya foydasi va moliyaviy xizmat ko'rsatishdan ko'riladigan pul oqimi tahlili. Olingan va to'langan foizlar, olingan va to'langan dividendlar tahlili. Soliqlanishdagi pul mablag'lar sarfi tahlili. Investitsiya faoliyatidagi pul mablag'lari tahlili: nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotib olish va sotish, xarid qilingan uzoq va qisqa muddatli qo'yilmalar bo'yicha pul mablag'lari tahlili. Moliyaviy faoliyatdan pul oqimi tahlili: Aktsiya chiqarishdan kapitalga tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarning undirilishi, ijara majburiyatlari bo'yicha tushum va to'lovlar tahlili. *Valyuta mablag'lari harakati tahlili. Pul mablag'lari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash.*

### **Xususiy kapital tahlili**

Tahlilning mazmuni, vazifalari va manbalari. Xususiy kapitalning tarkibi: ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, xususiy kapital bilan qoplanmagan zararlar tahlili. *Xususiy kapitalning o'zgarish sabablari tahlili. Xususiy (hissador) kapitalning o'sishi, qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi, asosiy vositalarning qayta baholanishi, rezerv uchun ajratma, joriy yil foyda yoki zarari, olingan dividendlar tahlili.* Hisobot davri oxirida ustav kapitaliga qo'shilgan badallar, chiqarilgan oddiy va imtiyozli aktsiyalar, muomaladagi aktsiyalar harakati tahlili. Xususiy kapitalni ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash.

### **3-Bo'lim. Korxonaning ayrim faoliyat turlari tahlilining o'ziga xos xususiyatlari**

### **Korxonaning investitsiya faoliyatining tahlili**

Tahlilning mazmuni, vazifalari va manbalari. Ishlab chiqarish investitsiyasi tahlili. *Moliyaviy investitsiyalar tahlili. Investitsiyalar tarkibi va dinamikasi tahlili.* Xorijiy investitsiyalarning jalb qilinganligi va uning samaradorligi tahlili. Investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash.

### **Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati tahlili**

Tashqi iqtisodiy faoliyat tahlilining mohiyati va mazmuni. Eksport faoliyati tahlili. *Eksport faoliyati bilan bog'liq xarajatlar va moliyaviy natijalar tahlili.* Import faoliyati tahlili. Import faoliyati bilan bog'liq moliyaviy natijalar tahlili. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha moliyaviy natijalar tahlili.

## **3. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI RO'YXATI**

### **1-Bo'lim. Boshqaruv tahlili**

#### **Korxonona mahsuloti va xizmatiga bo'lgan talab va taklif tahlili**

Korxonaning marketing faoliyatini tahlil etishning ahamiyati va tahlil vazifalari. Korxonona mahsuloti va xizmatiga bo'lgan talab va taklifni tahlil etish uslublari. Talab va taklifga ta'sir etuvchi omillar.

Iste'mol tovarlarini iste'molchi tomonidan xarid etilmaganlik sabablari: tashqi va ichki sabablar.

Iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini tahlil etish uslublari.

#### **Mahsulot ishlab chiqarish hajmining tahlili**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ishlab chiqarish hajmini tahlil etishning ahamiyati, vazifalari va unda foydalaniladigan manbalar. Qiymat, natura, shartli-natura ko'rsatkichlarning mahsulot hajmini aniqlashda qo'llanilishi.\* Mahsulot assortimentini tahlil etish uslubi. Mahsulot tarkibidagi strukturaviy o'zgarishini uning qiymat shakliga ta'sirini hisoblash uslubi.

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini tahlil etish uslubi.

Maromiylilik koeffitsientini aniqlash tartibi. Maromiylilikni buzilish sabablari va uning oqibatlarini.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni turkumlashtirish.

#### **Mahsulot (ish, xizmat)lar sotish va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili**

Mahsulot sotish hajmi dinamikasining tahlili. Sotish hajmini o'rtacha yillik o'sish darajasini hisoblash tartibi.

Sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishini tahlili.

Mahsulot sifatini tahlil etish uslubi.

Mahsulot reklamatsiyasi, butligi (komplekt)ga e'tiborni kuchaytirishning bozor iqtisodiyoti sharoitida zarurligi.

Mahsulot sotish hajmini oshirish imkoniyatlarini hisoblash va jamlash.\*

### **Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik, mehnat unumdorligi va ularning mahsulot hajmiga ta'siri tahlili**

Mehnat resurslari tahliliniing vazifalari.\* Korxonani ishchi kuchi bilan ta'minlanganligi, uni tarkibi va harakati.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va ular dinamikasining tahlili. Bir xodimga va bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulotga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash tartibi. Mehnat sig'imining o'zgarishi mehnat unumdorlik ko'rsatkichiga ta'sirini aniqlash tartibi.\* Ish vaqtidan unumli foydalanish va mehnat unumdorligini o'sishi hisobiga mahsulot hajmini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

### **Korxonaning moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish tahlili**

Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanishini tahlil etish uslubi.

Moddiy resurslar(xom ashyo, yoqilg'i va x.k.)dan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Mahsulot material sig'imi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash uslubi.\*

Sarf me'yori va material bahosining o'zgarish sabablari.Ikkilamchi resurslardan foydalanishning afzalliklari.\*

### **Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish tannarxi tahlili**

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tahlili, bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari hamda boshqa ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlarning tahlili. Ishlab chiqarish moddiy xarajatlarning tahlili, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnat haqi xarajatlari va ijtimoiy sug'urta uchun ajratma xarajatlari tahlili, asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi tahlili. Mehnat unumdorligining o'sishi bilan o'rtacha ish haqi o'rtasidagi nisbat tahlili va ularni mahsulot tannarxiga ta'sirini hisoblash.

### **Davr xarajatlarining tahlili**

Boshqaruv xarajatlari tahlili, mahsulotlarni sotish xarajatlari tahlili va boshqa operatsion xarajatlar tahlili. Tovarlarni saqlash, o'rash-joylash va savdo reklamasi

xarajatlari tahlili.\* Ma'muriy xarajatlar tahlili.\* Davr xarajatlarini pasaytirish imkoniyatlarini hisoblash.

## **2-Bo'lim. Moliyaviy tahlil**

### **Korxonada moliyaviy holatining tahlili**

Buxgalteriya balans va uni tahlilda qo'llanilishi. Balans aktivi tahlili. Balans passivi tahlili. Korxonada moliyaviy barqarorligi tahlili. Mablag'lar aylanishining umumiy va alohida (yakka) ko'rsatkichlari tizimi.\* Korxonada moliyaviy holati tahlilining natijalarini umumlashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirish yo'llarini belgilash.

### **Moliyaviy natijalarning tahlili**

Moliyaviy natijalarning shakllanishi, yillik sof foyda, uning tarkibi tahlili. Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda va chiqimlar tahlili, asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan boshqa daromadlar: undirilgan yoki e'tirof etilgan jarima, penya va shtraflar, asosiy fondlarni va boshqa mol-mulklarni sotishdan olingan daromadlar, da'vo muddati kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar, tovar-moddiy boyliklarni qayta baholanishidan va davlat subsidiyalaridan daromadlar, xolisona moliyaviy yordam va boshqa operatsion daromadlar tahlili.\* Soliq to'langunga qadar foyda va foydaning ishlatilishini tahlili.\* Byudjetga to'lovlar va boshqa ajratmalarning tahlili.

### **Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlili**

Debitorlik qarzlarning tarkibi, muddatlari va ularni undirilish holati tahlili. Kreditorlik qarzlari tarkibi, muddatlari va ularning qaytarilish holati tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik tahlili.\* Qarzlarni kamaytirish imkoniyatlari.\*

### **Asosiy vositalarning holati va ulardan samarali foydalanish tahlili**

Tahlilning mazmuni, vazifalari va manbalari. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili. Asosiy vositalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili. Asosiy vositalardan foydalanishning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirining omilli tahlili.\* Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

### **Pul oqimlarining harakatining tahlili**

Pul oqimlari tahlilining mazmuni, vazifalari va manbalari. Umumiy pul oqimi harakati tahlili. Olingan va to'langan foizlar, olingan va to'langan dividendlar tahlili.

Soliqlanishdagi pul mablag'lar sarfi tahlili. Moliyaviy faoliyatdan pul oqimi tahlili: Aktsiya chiqarishdan kapitalga tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarning undirilishi, ijara majburiyatlari bo'yicha tushum va to'lovlari tahlili. Valyuta mablag'lari harakati tahlili.

### **Xususiy kapital tahlili**

Xususiy kapitalning tarkibi: ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, xususiy kapital bilan qoplanmagan zararlar tahlili. Xususiy kapitalning o'zgarish sabablari tahlili. Hisobot davri oxirida ustav kapitaliga qo'shilgan badallar, chiqarilgan oddiy va imtiyozli aktsiyalar, muomaladagi aktsiyalar harakati tahlili. Xususiy kapitalni ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash.\*

### **3-Bo'lim. Korxonaning ayrim faoliyat turlari tahlilining o'ziga xos xususiyatlari**

#### **Korxonada investitsiya faoliyati tahlili**

Tahlilning mazmuni, vazifasi va manbalari. Ishlab chiqarish investitsiyasi tahlili. Moliyaviy investitsiyalar tahlili. Investitsiyalar tarkibi va dinamikasi tahlili.\* Xorijiy investitsiyalarni jalb qilinganligi va uning samaradorligi tahlili. Investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash.\*

#### **Korxonada tashqi iqtisodiy faoliyati tahlili**

Tashqi iqtisodiy faoliyat tahlilining mohiyati va mazmuni. Eksport faoliyati tahlili. Eksport faoliyati bilan bog'liq xarajatlar va moliyaviy natijalar tahlili. Import faoliyati tahlili. Import faoliyati bilan bog'liq moliyaviy natijalar tahlili. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha moliyaviy natijalar tahlili.\*

#### **Kurs ishlari mavzularining ro'yxati**

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida korxonani boshqarishda iqtisodiy tahlilning tutgan o'rni, ahamiyati va vazifalari;
2. Iqtisodiy tahlil predmeti, mazmuni va vazifasi;
3. Tahlilning iqtisodiy fanlar sistemasida tutgan o'rni;
4. Iqtisodiy tahlil metodi va usullari;
5. Iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari;
6. Tahlilning iqtisodiy-matematik usullari;
7. Taqqoslash va zanjirli bog'lanish – iqtisodiy tahlilning asosiy usullari;
8. Iqtisodiy tahlil turlari va uning ishlab chiqarishni boshqarishdagi roli;
9. Funktsional-qiyamat tahlili. Uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ichki imkoniyatlarini aniqlashdagi roli;

10. Boshqaruv tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifasi;
11. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish va uni axborot manbai;
12. Iqtisodiy tahlilning axborot manbalari va ularni tekshirish usullari;
13. Korrelyatsiya–regressiv tahlili;
14. Bozor tuzilishi va raqobat darajasining tahlili;
15. Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlili. Mahsulot strukturasi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga ta'siri;
16. Mahsulot sotish hajmining tahlili va unga ta'sir etuvchi omillar;
17. Shartnoma asosida mahsulot etkazib berish tahlili;
18. Mehnat sig'imini hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarishning tahlili;
19. Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti hajmi tahlili. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot turlarini yangilashning ahamiyati;
20. Mahsulot sifati va raqobatga bardoshlilik tahlili;
21. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili;
22. Korxonani ishlab chiqarish imkoniyatining tahlili;
23. Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishi tahlili. Kadrlar (xodimlar) qo'nimsizligi tahlili;
24. Ish vaqtidan foydalanish tahlili. Mahsulot mehnat sig'imining tahlili;
25. Mehnat unumdorligining darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili;
26. Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanishi va zahira holati tahlili;
27. Ishlab chiqarishda moddiy resurslardan foydalanish tahlili;
28. Ishlab chiqarilgan mahsulot material sig'imi tahlili;
29. Sanoatda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi tahlili;
30. Ishlab chiqarish harajatlari, ularning tarkibi va tuzilishi tahlili. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar tahlili;
31. 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlar tahlili;
32. Ishlab chiqarishning xarajat elementlari va kalkulyatsion moddalari tahlili;
33. Moddiy (material) xarajatlar va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili;
34. Mehnat haqi xarajatlari tahlili;
35. Mehnat unumdorligining o'sish darajasi va o'rtacha ish haqi o'rtasidagi nisbat tahlili;
36. Ayrim mahsulot turlari tannarxi tahlili;
37. Moliyaviy tahlilning mazmuni, manbai va tahlil vazifasi;
38. Xorijiy mamlakatlar moliyaviy hisobotini tahlil etishning o'ziga xos xususiyatlari;
39. Korxonani balansining tuzilishi va uning tahlili;
40. Korxonani mol-mulki, uning tarkibi, tuzilishi va tashkil topish manbai tahlili;
41. O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanishi va uning saqlanishi tahlili;
42. Korxonani to'lov qobiliyati tahlili;

43. Korxonada moliyaviy barqarorligi tahlili;
44. Likvidlik ko'rsatkichlari. Balans likvidligi tahlili;
45. Aylanma mablag'lar aylanishi tahlili;
46. Moliyaviy natijalarning shakllanishi, ularning tarkibi va dinamikasi tahlili;
47. Tovar – moddiy qiymatliklarini aniqlashda FIFO va LIFO metodlarining qo'llanishi va ularning foydaga ta'siri;
48. Marjinal foyda va zararsizlik nuqtasi tahlili;
49. Mahsulot sotishdan ko'rilgan foyda tahlili;
50. Ishlab chiqarish hajmi, foyda va xarajatlarining bir-biriga mosligi tahlili;
51. Rentabellik darajasi tahlili;
52. Mahsulot turlari bo'yicha rentabellik tahlili;
53. Byudjetga to'lovlar va ularning tahlili;
54. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili;
55. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili. Tezlashgan amortizatsiya ajratmalari va ularning fond qaytimini oshirishdagi roli;
56. Asosiy fondlarni texnik holati tahlili;
57. Ishlab chiqarish jihozlari va ularning vaqti va quvvati bo'yicha foydalanish tahlili;
58. Asosiy fondlardan samarali foydalanish tahlili;
59. Pul oqimlari tahlili;
60. Xususiy kapital tahlili;
61. Korxonaning investitsion faoliyati tahlili;
62. Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati tahlili;
63. Eksport muomalalari tahlili;
64. Import muomalalari tahlili.

Kurs ishini bajarish ilmiy izlanish bo'lib, boshqaruv va moliyaviy tahlilning biror bir mavzusini to'laroq o'rganadi va o'rganilgan mavzu yozma shaklda bayon etilib, ilmiy rahbardan ijobiy taqriz olingandan so'ng himoya bilan ishga yakun yasaladi. Kurs ishini bajarishdan maqsad talabning o'qishi davomida olgan bilimni aniq analitik masalalarni hal etish orqali mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Moliyaviy va boshqaruv tahlil bo'yicha kurs ishini bajarishga tayyorgarlik ko'rish talabning tanlagan ixtisosligi bo'yicha bilimni mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi, ilmiy izlanish faoliyati bilan shug'ullanishga o'rgatadi.

Maxsus kompyuter dasturlari orqali hisob-kitob ishlarini bajarishda kurs ishi muhim ahamiyatga ega.

Talaba kurs ishini bajarishi orqali yanada muhimroq vazifa -diplom ishini yozishga, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radi.



Kurs ishi hajmi 20-25 varaqdan, analitik jadvallar soni esa 5 tadan kam bo'lmashi lozim.

#### **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI**

1. "1:S buxgalteriya" kompyuter programmasi yordamida tahlil uchun kerakli manba, firma va kompaniyalarning buxgalteriya balansini tuzish va undagi ma'lumotlarni o'rganish mumkin.
2. Aldo Ariano. Buxgalteriya hisoboti va moliyaviy ko'rsatkichlarni avtomatlashtirish. - T.: Bozor ko'nikmalarini rivojlantirish markazi, 1999.
3. Internet tizimi bo'yicha quyidagi saytlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- <http://www.cfin.ru/finanalizis/>
- <http://www.citforum.ru/abtec/>
- <http://www.findirector.ru/>
- <http://www.comshare.ru/>
- <http://www.analitic.ru/>
- <http://www.biziness.smolensk.ru/>
- <http://www.buh.ru/>
- <http://www.optim.ru/fin/>
- <http://www.bizbook.ru/>
- [http://www.vestona.ru/abfi\\_p.htm/](http://www.vestona.ru/abfi_p.htm/)
- <http://www.bizi.ru/>
- <http://www.biblion.ru/>
- <http://www.bookpost.ru/>
- <http://www.nevod.ru/>
- <http://www.audit-it.ru/>
- <http://www.finanaliz.kiev.ua/>
- <http://www.preiskurant.ru/>
- <http://www.nature.ru/>
- <http://www.biblion.ru/>

#### **5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI**

Ushbu fan bo'yicha o'quv rejasida jami 156 soat dars o'tish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 78 soat ma'ruza, 78 soat amaliy va seminar darslar. Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va joriy

baholash, oraliq baholash va yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi. Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. "Boshqaruv va moliyaviy tahlil" fanidan talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 156,0 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 54,6 ball, oraliq baholashga 54,6 ball va yakuniy baholashga esa 46,8 ball ajratiladi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi;

- talabaning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirishi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- ilmiy tezislarni tayyorlashi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi.

Tayanch tushunchalariga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tadbiiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi.

## **6. ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - T.: O'zbekiston, 1995.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
6. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. - T.: O'zbekiston, 1999.
7. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish – farovonlik poydevori. "O'zbekiston ovozi" gazetasi 2000 yil 22-iyul.
8. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, 2000.

9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - T.: O'zbekiston, 2001.
10. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. // "O'zbekiston ovozi" gazetasi 1996 yil 17-sentyabr.
11. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. // "O'zbekiston ovozi" gazetasi 2000 yil 30-may.
12. "Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllanishi" haqidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 1999.
13. Abdulkarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999.
14. Abdullaev Yo.A., Ibragimov A.T., Raximov M.Yu. Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob. - T.: Mehnat, 2001.
15. Voxobov A. V., Ibragimov A. T. Moliyaviy tahlil. - T.: Sharq, 2002.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Analiz pribilnosti produktsii. - M.: Delo, 1996.
2. Artemenko V.G., Belandir M.V. Finansoviy analiz. Uchebnoe posobie. - M.: NGAEiU, 1997.
3. Astaxov V.P. Analiz finansovoy ustoychivosti firmi (protseduri svyazanniy s bankrotstvom). - M.: Finansi i statistika, 1996.
4. Analiz finansovoy otchetnosti predpriyatiy pri ix investirovani i kreditovani i. - M.: 2000.
5. Bakanov M.I., Sheremet A.D. Teoriya ekonomicheskogo analiza. - M.: Finansi i statistika, 1999.
6. Bernstein A.A. Analiz finansovoy otchetnosti. - M.: Finansi i statistika, 1996.
7. Bocharev V.V. Upravlenie denejnim oborotom predpriyatiy i korporatsiy. - M.: Finansi i statistika, 2001.
8. Bocharev V.V. Finansoviy analiz. - Sankt-Peterburg: Piter, 2001.
9. Buxgalterskiy analiz. Perevod s angliyskogo. – Kiev: 1998.
10. Vaxrin P.I. Finansoviy analiz kommercheskix i nekommercheskix organizatsiyax. Ucheb posobie. - M.: Izdatelstvo – knigotorgovix tsentr marketing, 2001.
11. Grigorev Yu.A. Uchet, analiz i kontrol vneshneekonomicheskoy deyatelnosti i valyutnix operatsii. - M.: PAIMS, 1998.
12. Efimova O.V. O sostavlenii poyasnitelnoy zapiski k godovomu otchetu // Buxgalterskiy uchet № 1. 1997.
13. Efimova O.V. Finansoviy analiz. - M.: Buxgalterskiy uchet, 1996.
14. Ergeshev E. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. – T.: Moliya, 2000.

15. Ibrohimov A.T. Moliyaviy tahlil. - T.: Mehnat, 1995.
16. Irvin D. Finansoviy kontrol. - M.: Finansi i statistika, 1998.
17. Kovalev V.V. Finansoviy analiz. Upravlenie kapitalom. Vibor investitsii. Analiz otchetnosti. - M.: Finansi i statistika, 1995.
18. Kovalev V.V. Metodi otsenki investitsionnix proektov. - M.: Finansi i statistika, 2001.
19. Natsionalnie standarti buxgalterskogo ucheta Respubliki Uzbekistan. – T.: Assotsiatsiya buxgalterov i auditorov Uzbekistana, 2002.
20. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil. - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999.
21. Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – Samarqand: Zarafshon, 2001.
22. Pavlova L.N. Finansoviy menedjment. - M.: YuNITI-DANA, 2001.
23. Terexova V.A. Mejdunarodnie i natsionalnie standarti buxgalterskogo ucheta i otchetnosti. - M.: Perspektiva, 2000.
24. Robert N. Xolt. Osnovi finansovogo menedjmenta. Perevod s angliyskogo. - M.: 1995.
25. Rojnova O.V. Finansoviy uchet: Teoreticheskie osnovi, metodologicheskiy apparat. - M.: Ekzamen, 2001.
26. Savitskaya G.V. Analiz xozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatii. – M.: I.P. Finans, 2001.
27. Sorokina O.N. Sravnitel'niy analiz v osnovnie priemi transformatsii finansovoy otchetnosti v sootvetstvii s mejdunarodnimi standartami. - M.: UMTs, 2001.
28. Rahmonov Q.R. Qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini tahlil qilish. - T.: 1996.
29. Finansovaya otchetnost. Realnaya kartina sostoyaniya biznesa. - M.: Delo, 1996.
30. Finansoviy analiz deyatel'nosti firmi. –M.: M.I. Servis, 1996.
31. Fridman Dj., Orduei Nik. Analiz i otsenka prinosyashchey doxod nedvijimosti. - M.: Delo, 1997.
32. Xarigeri Ch., Fostger G. Buxgalterskiy uchet: Upravlencheskiy aspekt. - M.: Finansi i statistika, 1995.
33. Xoldervik K. Finansovo-ekonomicheskii analiz deyatel'nosti predpriyatiya. - M.: Finansi i statistika, 1996.
34. Cherkasov V.E. Prakticheskoe rukovodstvo po finansovo – ekonomicheskim raschetam. - M.: Metainform, 1995.
35. Sheremet A.D., Suyts V.P. Audit. - M.: INFRA, 1996.
36. G'ulomov S.S. Investitsiyalarning loyihaviy tahlili. -T.: 1998.
37. Robert D. Gatewood, Robert R. Taylor O.C. Ferrell Management /Comperhension, Analysis, and Application / IRWIN, 1995.
38. Joel G. Siegel, Jae K. SHim, David Minars Financial trouble – SHOOTER spotting & solving financial problems in your company. Mc Graw - Hill, Inc. 1993.

39. David C. Colander. Economics IRWIN, 1993.
40. Donald H. Ph. G. William Glezen. Auditing: Integrated Concepts and Procedures sixth Edition. John Wiley & Sons, Inc., 1994.
41. Payl Peter, James H. Donnelly. Marketing, Managment. Knowledge and Skills. IRWIN 1995.
42. Operations Managment. Richard I. Schonberger, Edward M. Knood. IRWIN, 1994.
43. George J. Posner. Analyzing the Curriculum. Mc Graw - Hill, Ink 1992.
44. Larson, Miller. Financial accountign. IRWIN, 1992.
45. Introduction to Accounting: An Integrated Approach. P. Ainsworth, D. Danies, R. D. Plumlee, Cathy X. Larson Irwin, 1997.